

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.P.Jurayev
XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligida yer egaligi tizimi va uning o'ziga
xos jihatlari285

Sh.Sh.Jumayev
Farg'ona viloyatidagi yevangel xristian baptistlar jamoasi tarixi va bugungi kundagi
faoliyati293

K.Abdurakhmanova, M.Jurabekova
Reflection of folk medicine in the elements of primitive religion
(the example of Jizzakh)297

ADABIYOTSHUNOSLIK

S.Mirzaeva, N.Y.Usarova
A comparative analysis of the characters of king Arthur and Alpomish in english and
uzbek folklore literature301

A.G.Sabirdinov
Jadidchilik, muxtoriyat, mustaqillik307

G'.O.Xolbutayev
Askiya-so'z san'ati, hozirjavoblik va zukkolik mahorati310

O.Barziyev, F.Baxtiyor
Sayohat taassurotlari bilan bog'liq poetik turkumlar tasnifi317

S.A.Xodjayev
Folklor namunalarida uchlik timsoliga asoslangan ramzlar323

H.K.Сабиров, В.А.Гиёсова
Движение джадидизм и узбекская детская литература326

G.Ch.Muratova
G'.G'ulomning "Shum bola" qissasida qahramon ruhiy olami tasviri329

TILSHUNOSLIK

N.R.Gafurova
O'zbek va ingliz tillaridagi o'zlashma so'zlar va neologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari333

Q.Sh.Kaxarov, D.M.Dehqonova
O'zbek va ingliz tillarida iboralarning qo'llanishi338

Y.E.Ro'ziboyeva
Ingliz va o'zbek tillaridagi estetik qadriyatlarni ifodalovchi maqollarning
lingvakulturologik xususiyatlari341

N.R.Gafurova
Neologizmlarning tarjimada ifodalanishi va o'ziga xos xususiyatlari344

M.G.Khoshimov
Problems of general and typological theory of composite sentence with a parenthetical
clause as an invariant type of syntactic unit347

D.M.Yuldasheva, M.A.Ermatova, N.U.Abdumalikova
Jahon tilshunosligida matn tadqiqi haqida354

M.M.Aslonov
The educational process and content of educational activities in the
"House of Bukhara education"358

Z.V.Alimova
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi forsiy sinonimlar xususida362

G.R.Mamadaliyeva
Ingliz va o'zbek tillarida "Foot/Oyoq" leksemalarining semantik tahlili367

P.Sh.Kaxramonova
Badiiy asar tili va ekolingvistika373

H.U.Davlatova
Muloqotning nazariy asoslari hamda sohaga oid qarashlar376

H.U.Davlatova, H.Abdurahmonova
Milliy muloqot kompetensiyasini shakllantirish omillari380

G'.G'ULOMNING "SHUM BOLA" QISSASIDA QAHRAMON RUHIY OLAMI TASVIRI

ОБРАЗ ДУХОВНОГО МИРА ГЕРОЯ В ПОВЕСТИ Г. ГУЛАМА «ОЗОРНИК»

THE IMAGE OF THE SPIRITUAL WORLD OF THE HERO IN THE STORY "SHUM BOLA" BY G. GULAM

Muratova Gulbaxar Choriyevna¹¹Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada akademik G'.G'ulomning nasriy merosi o'rganilgan. Unda adibning "Shum bola" qissasi misolida G'.G'ulom nasrining o'ziga xosligi tadqiq etilgan. G'.G'ulomning qahramon ruhiy kechinmalarini yoritish mahorati qissadan keltirilgan misollar asosida tahlilga tortilgan. Tadqiqotchi asardagi Shum bola, Omon, qozoq kampir, Oysha yallachi, Latifaxon kabi bir qator qahramonlardagi yuksak insoniy tuyg'ular hayotiy mantiqqa ko'ra tasvir etilganini asoslaydi. Ushbu maqolada mamlakatdagi notinchlik, moddiy yetishmovchiliklar bu qahramonlar qalbidagi yuksak insoniy fazlatlarga soya solmaganligi qissada ishonarli tarzda tasvirlangani dalilangan.

Maqolada ilgari surilgan fikr-mulohazalar tadqiqotchi tomonidan muxtasar holda umumlashirilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается прозаическое наследие академика Г.Гулама. В ней своеобразие прозы Г.Гулама исследуется на примере рассказа писателя «Озорник». Способность Г.Гулама освещать душевные переживания героя анализируется на примерах из повести. Исследователь обосновывает, что высокие человеческие чувства ряда персонажей произведения, таких как Шум бола, Амон, казахская старуха, Айша яллаци, Латифаксон, изображены согласно жизненной логике. В данной статье утверждается, что смута в стране и материальный дефицит не затмили высокие человеческие качества в сердцах этих героев. Мнения, высказанные в статье, кратко обобщены исследователем.

Abstract

This article examines the prose heritage of academician G. Ghulam. In it, the originality of G. Ghulam's prose is studied on the example of the writer's short story "Shum Bola". G. Ghulam's ability to illuminate the hero's spiritual experiences is analyzed based on examples from the story. The researcher substantiates that the high human feelings of a number of characters in the work, such as Shum bola, Amon, Kazakh old woman, Aisha yallachi, Latifaxon, are depicted according to life logic. In this article, it is argued that the turmoil in the country and material shortages did not overshadow the high human qualities in the hearts of these heroes. The opinions expressed in the article are briefly summarized by the researcher.

Kalit so'zlar: Poetik mahorat, gumanistik pafos, qahramon, badiiy obraz, qissa, falsafiylik.

Ключевые слова: Поэтическое мастерство, гуманистический пафос, герой, художественный образ, новелла, философия.

Key words: Poetic skill, humanistic pathos, hero, artistic image, short story, philosophy.

KIRISH

So'z san'atining o'ziga xosligi shundaki, unda inson ko'ngil kechinmalari, ruhiy olamining turfa jilvalari badiiy so'z vositasida aks ettiriladi. Yuksak nafosat namunasi bo'lgan asargina insonga o'zgacha ta'sir ko'rsatib, uning ma'naviy-ruhiy takomilida muhim o'rin tutadi. Badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyati haqida so'z yuritgan Aleksandr Genis shunday fikrlarni keltirib o'tadi: "Adabiyotning mo'jizaviy qudrati shundaki, u insonning so'zda ifodalab bo'lmaydigan, nimalab tashlanmagan yurakdek substansional qismini kitobxonga yetkazib berishga qodirdir. Agar shu qismi bo'lmasa, bironta ham muallif boshqasidan hech qaysi jihati bilan ajralib turmas edi" [2. 158].

XX asr o'zbek adabiyotida bir-biridan keskin farqlanuvchi, har biri o'ziga xos iqtidor egalari bo'lgan ko'plab ijodkorlar yetishib chiqdi. Fitrat, Qodiriy va Cho'lponlardan keyin adabiyotga kirib kelgan Oybek, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, G'afur G'ulom singari qalam sohiblari yaratgan badiiy so'z durdonalari kitobxonlar qalbidan mustahkam o'rin oldi. To'g'ri, hukmron mafkuraning adabiyot va san'at sohasidagi cheklashlari ularning ijodlariga ham qaysidir darajada o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Shuning uchun ham bu ijodkorlarning barcha asarlariga yuksak badiiyat namunasi deb qarash unchalik to'g'ri emas. Adabiyotshunos O.Sharafiddinov ta'biri bilan aytganda: "...kommunistik qatliomdan omon qolgan buyuk

ijodkorlarimiz ma'lum darajada o'sha zamonning temir qonuniyatlariga moslashishga majbur bo'lishgan, lekin bunday "moslashish" ularning ijodagi mohiyatini tashkil qilmagan" [11. 175]. Bu fikrlar XX asrning ko'plab namoyandalari qatori G'afur G'ulom ijodiga ham bevosita daxldordir. G'ulom nafaqat yetuk shoir, balki iste'dodli nosir sifatida ham o'zbek adabiyoti tarixida alohida o'rin tutadi. Uning ijodida sharqona donishmandlikka yo'g'rilgan, yuksak badiiy xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan asarlar anchagina. Adibning "Hasan Kayfiy", "Mening o'g'rigina bolam", "Hiylai shar'iy", "Afandi o'lmaydigan bo'ldi", "Elatiyada bir ov" kabi hikoyalari; "Shum bola", "Netay", "Yodgor" singari qissalari o'zbek adabiyotining eng yorqin namunalari.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

G'ulom hayoti va ijodiy faoliyati XX asrning ikkinchi yarmidan to shukungacha adabiyotshunoslar, ilm va ijod ahli diqqat-markazida bo'lib kelgan. O'zbek adabiyotshunosligida G'ulom she'riyati S.Mamajonov [3], A.Akbarov [1], B.Nazarov [9], O.Sharafiddinov [11], B.Sarimsoqov [10] singari adabiyotshunoslar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan. T.Matyobovning maqola va tadqiqotlarida shoirning badiiy mahorati, she'riyatidagi tuyg'ular tovlanishi muayyan darajada tahlil etilgan [6.40-43]. Ammo adibning badiiy mahorati muayyan asari bilan bog'liq tarzda mahsus tadqiq etilgan tadqiqotlar unchalik ko'p emas. Biz ushbu o'rinda G'ulom nasrini o'rganish orqali obraz yaratish mahorati, shoir she'riyatida tuyg'u-kechinma va ifodaning o'ziga xosligi haqida ayrim umumlashmalarimizni ilgari suramiz.

Jahon adabiyotshunosligida so'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda alohida ijodkor adabiy merosini qayta baholash, poetik o'ziga xosligini belgilashga bo'lgan intilish ortdi. Binobarin, XX asr adabiyotini o'rganish bo'yicha to'plangan ilmiy-nazariy fikr-qarash va amaliy tajribalar betakror iste'dod sohibi G'afur G'ulom nasriy asarlari o'ziga xosliklarini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu maqolada qo'yilgan ilmiy muammo tadqiqiga muvofiq qiyosiy-tarixiy va tavsifiy metodlardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Shum bola" [12] qissasida G'afur G'ulom sodda, beg'ubor, ma'sum o'spirin obrazini yaratadi. Asar o'tkir hajv va dono yumor bilan ziynatlangan, yetim bolaning sarguzashtlari asosiga qurilgan. Asarda ma'lum darajada avtobiografik elementlar uchrasa-da, unda o'zbek bolalarining boshidan o'tkazgan sarguzashtlari hikoya qilinadi.

Mamlakatdagi notinchlik tufayli shaharda ishsizlik muammosi kelib chiqqan. Qissadagi Omon, It Obid, Bit Obid, Turobboy, Yo'ldosh, Husni, Solih, Abdulla, Po'latxo'ja, Miraziz singari bolalarning taqdiri bir-biriga o'xshash. Omon onasidan, Yo'ldosh ota-onasidan, Shum bola otasidan ajralgan. Odamlarning kasb-korlariga diqqat qilinsa, pichoqchi, eski-tuski yig'uvchi, tikuvchi, ko'nchi, hofiz, g'o'zafurush, kerosinfurush, mayda savdogarlik va hokazo. Shum bolaning mahalladoshlari, qo'ni-qo'shnilar bilan kitobxon shu tarzda tanishadi. Yo'ldosh «*bari mog'orlab ketgan surp yaktak*» kiyib olgan va boshqalarning ham ahvoli undan tuzuk emas. Shum bolalarning mayda-chuyda saqlanadigan uyi zax bosgan. Yog'lari kichkinagina ho'qchada saqlanadi. Hatto tovuqqa moyak o'rniga ham piyoz qo'yilgan. Shunga qaramasdan odamlarda mehr-shafqat, iymon, e'tiqod kabi insoniy tuyg'ular so'nmagan.

Shum bolaning onasi bolasining boshiga xamir yoyib o'tirgan o'qlovi bilan «*astagina*» uradi. Chunki uning uchun o'choq boshi «*Fotimai Zahroning dastgohlari bo'lgan qutlug' yer*» bo'lib, bu joyni iflos qilish gunoh. Ona bolasining boshini yorib qo'rganidan esxonasi chiqib ketsa, Shum bola qo'rqish va uyatdan ko'chaga qochadi, hatto uyiga qaytib kelishga beti chidamaydi. Chunki yetimcha singillarining nasibasini ko'chaga tashmalash uyat ekanligini u yaxshi biladi. Biroq o'rtoqlari oldida hamiyatli bo'lib ko'rinish ehtiyoji uni shu yo'lga boshlaydi. Onaizor butun qissa davomida Shum bolani intizorlik bilan kutadi. Do'sti Turobboyning tilidan bayon qilinishicha, u hatto o'g'lim o'lib qolgan bo'lsa-ya, deb aza ochmoqchiyam bo'ladi.

Shum bolaning uyga qaytmasligi uning mehrsizligidan emas. Bir qarashda bu holat bolaning sarguzashtga o'chligidan kelib chiqqanday tuyuladi. Biroq mazkur holatni shu bilangina izohlab bo'lmaydi. Ammasi va pochchasining erkalashlari, bolajonligi Shum bola qalbidagina emas, kitobxonda ham nihoyatda iliq taassurotlar uyg'otadi. Bu mehribonchilik bir jihatdan ularning o'ksik qalbi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, yetimparvarlik, odamjonlik bilan izohlanadi. Qissada ularning nozik qalblarida turfa gullargayu hayvonu parrandalargacha tizginsiz bir mehr borligi tasvirlangan.

ADABIYOTSHUNOSLIK

«*Shum bola*» qissasida oqibatli odamlar tasviri juda ko'p. Shum bola va Omondan to'rsiz gardish va bola beshikni olgan qozoq kampir hikoyachi aytganiday «*ko'r xaridor*» emas. U o'z bolalarini bozorlik bilan siylamoqchi, qolaversa, keraksiz shu matohni sotib olib, yetimchalarnida quvontirmoqchi. Har bir so'zida «*qarog'im*», «*qaroqlarim*», - deb og'zidan bol tomadigan bu mehribon va halol kampir bolalarni rozi qilib mollarni oladi.

Qozoq kampirning iqtisodiy ahvoli ham maqtovgga loyiq emas. U o'zi yetishtirgan ul-bul narsalar: tovuq, tuxum, so'k, qurut bilan oilaga zarur anjomlarni ayriboshlashining o'ziyoq bechoraholligini ko'rsatib turibdi. Chunki savdo qilishga naqd puli yo'q. Demak, o'lkadagi barcha millat vakillari ham moddiy muhtojlikda qo'l uchida umr ko'radi. Shunga qaramasdan, insoniy harorat, bolajonlik, halollik, poklik, insof tuyg'ulari bilan ularning qalbi limmo-lim to'la ekanligi juda muhimdir.

Qirg'iz kampir Yaxshiqiz xarakterida anchagina salbiy jihatlar bo'rtib ko'rinadi. Bechora kampirni turmush tashvishlari birmuncha hisob-kitoblik qilib qo'ygan bo'lib, u o'z tirikchiligi muammolari bilan hayot kechiradi. Biroq kampir insoniy xislatlardan, e'tiqoddan begona ham emas. «*Allohning osmoni ham, yeri ham keng*» ekanligi haqidagi kampirning sodda falsafasi zamirida uning e'tiqodiga xos jihatlar mujassamlashgan. Atrofini qurshagan muhitga ko'nikib ketgan kampirda ham hali so'nmagani insoniy tuyg'ularni ko'rish uchun davr va odamlar hayotini teran bilish, maishiy holatlarning sabablarini tahlil eta olish, har bir qahramonning ruhiy olamidagi ko'z ilg'amas nozik jihatlarni mahorat bilan aks ettirish lozim edi. G'afur G'ulom mazkur mashaqqatli yumushni yuksak darajada uddalay oldi.

Qissadagi Shum bola va Omon ayri-ayri xarakterdagi bolalar. Omonga xos xislatlarda hushchaqchaqlik emas, balki birmuncha jiddiylik kuzatiladi. Tursunboy akaning yolg'iz o'g'li bo'lgan bu bola onasidan erta ajrab, yetimlik azoblarini totib ko'rgan, hayot ancha ulg'aytirib qo'ygan o'spirindir. Buning ustiga u Shum boladan biri-ikki yosh kattaroq bo'lib, ko'rgan-bilganning ko'zicha quruq qo'l bilan uyga borishdan or qiladi. U boy bo'lishni orzu qiladi, o'z niyatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida ne bir ko'chalarga kirib chiqmaydi. Poyezdda yurgan kishilarga ayri-ayri havas bilan qaraydi, uzoq-uzoqlarga ketib qolgisi keladi. U dunyo qidirib, baxt izlab yurganligi jihatidan Shum bola va uning o'rtoqlari taqdiriga taqdiri tutashligiga, mehr-muruvvatga tashna ekanligiga jiddiy e'tibor qaratish zarur.

«*Shum bola*» qissasida murakkab vaziyatlarda ham sof insoniy qiyofalarini yo'qotmagan kishilarning ruhiy holatini tushunish G'afur G'ulom ko'zlagan maqsadni anglashga yordam beradi. Qissa bejizga Shum bola qalbining tongday tiniqligi, o'zini qushday yengil his etayotganligi, ko'kragini to'ldirib nafas olishi tasviri bilan yakunlangan emas. Bu G'afur G'ulomga xos taqdirning qo'l bilan yaratilishi haqidagi ijodiy-estetik ideallarga borib taqaladi.

Shum bola Sariboynikiga ilk borgan kuni olma yashiklaridan karovat, yog'och qirindisidan yostiq qilib yotishiga qaramasdan, mazza qilib uxlaydi. Chunki u hali ziqna boy bilan yuzlashmagan edi. O'ziga o'xshagan xizmatkorlarning mehr-shafqatidan, samimiy maslahatlaridan qoniqish hosil qilgan edi. G'afur G'ulom bir cho'mich go'jayu ikki burda jaydari non bir yetimning ko'nglini ovlashga, qornini to'ydirishga yetar ekan, odamning odamga mehr-oqibat ko'rsatishi nahotki shunchalar mushkul deya so'rayotganday tuyuladi.

Toshkentlik dong'i chiqqan yallachilardan biri Oysha taqdiri uning shogirdlari bo'lgan Sarvi, Fotima, Risolat yallachilarnikiga tutash. Hayot zarbasi bilan bir paytlar aldangan, nihoyat nomigagina bo'lsa-da, Rahmat hojiga xotinlik qilib, uning turfa nayranglariga sabr bilan chidab kelayotgan, zarur bo'lsa o'z oilasini boqish, tirikchiligini o'tkazish uchun «*yuzini yerga surib tilanganday bo'lib, besh o'n so'm orttirib*» keladigan Oysha yallachi juda ham hayotidan rozi emas. Endilikda uni pul ham, eri ham qiziqirmaydi.

Yalla aytib, muqom tushib, davradagilarga turli qiliqlar ko'rsatib, dang'illama mehmonxonalarda «*bitta qiyg'ir bo'yin qilish bilan osmondagi qushni ovlaydigan*» yallachini nogoh tanimay qolasiz. O'ziga o'xshagan taqdirilar sonini yana bittaga ko'payishini istamagan Oysha yallachi qalbida so'nib borayotgan insoniy tuyg'ular qayta tiriladi. Musulmon bir kosibning sha'nini o'ylaganida, hamiyatli, himoyatli kishining farzandi bo'lgan Latifaxonga achinganida, uni harom yo'ldan saqlab qolish uchun kuyinganida bu holat yaqqol namoyon bo'ladi. Qizni muqarrar falokatdan ogoh etib, «*oyimposhsha*», «*poshshaxon*», «*oppoqqinam*», - deb erkalab hushyorlikka chorlaydi. Oyshaning jasorati Latifaxonni qochirib yuborishida ko'rinsa, Latifaxonning haqiqatan

ham mo'min kishining farzandi ekanligi: «*Nimaiki qilgan bo'lsam, bilib o'tgan, bilmay o'tgan gunohlarim uchun kechiring*», - deya qalbini ochishida ko'rinadi. Bu beg'araz samimiyatga qaytarilayotgan minnatdorchilikka emas, Allohdan umidvor musulmaning istig'fori, tavbasi hamdir.

Latifaxon o'z taqdirining yaxshilikka yuz burishini Yaratganning marhamatidan deb biluvchi e'tiqod kishisi. Shuning uchun bo'lsa kerak, taqdir uni ikkinchi bor sinayotganida ham bu bevaga nisbatan qalbimizda achinish, hamdardlik, ruhiy yaqinlik tuyg'usi zinhor so'nmaydi. Aksincha, adashgan Oysha yallachiga nisbatan ham iliq mehr paydo bo'ladi. Rahmat hojiga chiqarilgan xalq ajridan qanoat hosil qilamiz.

XULOSA

Umuman, adib har qanday murakkab vaziyatda ham insoniy qiyofasini yo'qotmagan kishilar ruhiy holatlarini jonli aks ettiradi. Ular qalbidagi insonparvarlik, mehr-muhabbat, samimiyat, odamiylik tuyg'ularini hayotiy matiqqa monand tarzda yoritadi.

“Shum bola” qissasida Qoravoy va u qatori o'spirinlar darbadarlik va makonsizlik balosiga giriftor bo'lgan. Bunday o'rinlarda ularning qorin tashvishi bilan birovlar eshigida yurishga majburligi yozuvchining muhit ustidan o'qigan aybnomasiday tuyuladi.

Qissaning aksariyat qahramonlari o'qiz bir banda sifatida taqdir sinovlari oldida betadbir qoladilar. Bunday o'rinlarda inson o'zligiyu imon qudrati namoyon bo'lgandek tuyuladi. Alohida olingan kishilar va olomon ruhiyati tasvirlangan o'rinlarda bu hol yaqqolroq ifodalangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akbarov A. Shoirning hayoti. T.: Adabiyot va san'at, 1973. – 156 .,
2. Aleksandr Genis. Qalb fotografiyasi // Jahon adabiyoti, 2003. № 1, 158- b.
3. Mamajonov S. Uslub jilolari. – T.: Adabiyot va san'at, 1972
4. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical &Applied Science. – Marseille, 2015.pp. 40-43
5. Matyoqubova T. G'afur G'ulom badiiyati. – T.: Fan va texnologiya, 2006. 160 b.
6. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical &Applied Science. – Marseille, 2015. pp. 40-43
7. Matyakubova T.R. Lyric Experience in Gafur Gulam's Poetry. Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT. 2022, Vol 2
8. Nazarov B. G'afur G'ulom olami. – T.: Fan, 2004.
9. Sarimsoqov B. Lirikada badiiy tafsil // O'zbek tili va adabiyoti, 1992, № 5-6.
10. Sharafiddinov O. Buyuklarimiz bag'rimizga qaytdi // Ijodni anglash baxti. -T.: 2004. 174-175- b.
11. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.5. – T.: Fan, 1986